

ATOPIK DERMATITLI BOLALARDA OG'IZ BO'SHLIG'I MIKROFLORASI TAHLILI

Eshqulova Sh.B.

Toshkent davlat stomatologiya instituti

eshkulovashaxzoda@gmail.com

Oxirgi yillarda bolalarda allergik kasalliklar keng tarqalib bormoqda. Yangilangan statistikaga ko'ra, yer shari aholisining 40% allergik kasalliklarga moyil. Atopik dermatit allergik kasalliklar orasida ko'p qismni tashkil etadi. 70% hollarda atopik dermatit bronxial astma, pollinoz, eshakemi, Kvinke shishi, allergik rinitga sabab bo'ladi. [Ovsyannikova O., 2012]

Qator adabiyotlarda ko'rsatilishicha, allergik kasalligi bor bemorlarda quyidagi tish-jag' patologiyalari uchraydi: og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida shishi, aftoz stomatit, deskvamativ glossit, atopik heylit. [Zelenova E., 2004] Allergik bolalarda so'lak hosil bo'lishi sekinlashishi, mahalliy immunitet pasayishi, parodont to'qimalarida regionar gemodinamika jarayoni buzilishi kuzatiladi. Allergik kasalliklar retsidiv xarakterga ega ekanligini hisobga olinsa, bolalar bir necha yillar davomida medikamentoz davolashda va bu o'z navbatida og'iz bo'shlig'idagi to'qimalarga mahalliy va sistemali negativ ta'sir o'tkazadi. [Admakin O., 2007].

Tadqiqot maqsadi. Atopik dermatitli bolalarda og'iz bo'shlig'i mikroflorasi tahlilini o'tkazish.

Material va usullar. Tadqiqot uchun Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazida ro'yxatga olingan 30 nafar atopik dermatit tashxisli turli yoshdagi bolalar ko'rikdan o'tkazildi (gender ko'rsatkich bo'yicha 15 qiz-50%, 15 o'g'il bola-50%). Tadqiqotda bakteriologik va statistika usullaridan foydalanildi. Bakteriologik tadqiqot uchun umumiy qoidalar asosida bemorlarning tilidan, luj va tanglay shilliq qavatidan, tishlar yuzasidagi karashdan va milk shilliq qavatida biotoplardan material olindi. So'ng og'iz bo'shligi shilliq qavatida mikrobiologik analizi o'tkazildi.

Natijalar va muhokama. Olingan natijalarga asosan, atopik dermatit tashxisli bolalarda og'iz bo'shlig'i mikroflorasida mikroblar koeffitsiyenti quyidagilarni ko'rsatdi:

streptococcus mutans- $1,00E \pm 05 // 40\%$
streptococcus oralis- $1,00E \pm 05 // 6,67\%$
streptococcus agalactiae- $1,00E \pm 05 // 10\%$
streptococcus pyogenes- $1,00E \pm 05 // 3,34\%$
streptococcus dysgalactiae- $1,00E \pm 05 // 3,34\%$
staphylococcus aureus- $1,00E \pm 05 // 23,34\%$
staphylococcus epidermidis- $1,00E \pm 05 // 13,34\%$

Olingan bakteriologik tekshiruv natijalariga kora, atopik dermatitli bolalarda har xil korinishli mikroorganizmlar turli tarkib va yuqori zichlikka ega koloniya hosil qiluvchi bakteriyalar borligini namoyon etdi. Til, lunj, tanglay, tishlar yuzasi karashi va milk shilliq qavatidan olingan stafilokokk va streptokokklarning koloniya hosil qiluvchi birligi yuqori 10^{-5} gacha saqlandi. Tajribada tekshirilgan shaxslarda uchragan patogen va shartli patogen mikroorganizmlar normetsenoz hisoblanib, bu og'iz bo'shlig'i mikroflorasining disbiotik reaksiyasi deb baholandi.

Xulosa. Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlarga asosan, allergik patologiyalari bolalar umumiy medikamentoz davo olganliklari, ayniqsa, og'iz orqali ichiladigan dori vositalaridan foydalanganliklari sababli stomatologik kasalliklarga uchrash ehtimoli katta. Bunday vositalardan uzoq muddat davomida foydalanish so'lak va milk suyuqligi tarkibi va sifati o'zgarishiga, og'iz bo'shlig'i pH darajasi o'zgarishiga sabab bo'ladi. Shu sababdan allergopatologiyali bemorlarda stomatologik kasalliklarning profilaktika chora tadbirlarini ishlab chiqish zarur.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Овсянникова О.Б. Атопические дерматиты в амбулаторной практике // Медицинский совет. – 2012.
2. Адмакин О.И. Стоматологический статус детей 12-летнего возраста, страдающих аллергической патологией // Стоматология детского возраста. – 2007.
3. Зеленова Е.Г., Заславская М.И., Салина Е.В., Рассанов С.П. Микрофлора полости рта: норма и патология: учеб. пособие. –2004